

FORMATION OF UZBEK TAX AND CUSTOMS TERMS DURING THE SOVIET ERA

Habibjonov Ikromjon Toshpolat o'glu

Fergana regional branch of the Uzbek State Institute of Arts and Culture, Deputy Dean for Youth
+998974139197, +998993639197, mybooks91@mail.ru

Annotation

This article gives a brief overview of the status and development of Uzbek tax and customs terms during the Soviet era. It also discusses the role of industry terminology in the economic life of a society.

Keywords: Terminology, tax, payment, customs, terminology.

Mutaxassislarining fikricha, hozirgi o'zbek adabiy tili "Turkiston viloyatining gazetasi" chop etila boshlangan vaqtdan e'tiboran shakllana boshladi. Yana shuningdek, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yashab o'tgan ijodkorlar bu davr adabiy tilini shakllantirishga o'zlarining katta hissalarini qo'shdilar. A.Qodiriy, M.Behbudiy, Cho'lpon, A.Avloniy kabi ma'rifatparvar ijodkorlarning, keyinchalik Oybek, G'.G'ulom, Hamid Olimjon, M.Ismoiliy va boshqalarning asarlari orqali hozirgi o'zbek adabiy tilining adabiy me'yorlari qat'iylashib bordi.

Jamiyat hayotining barcha sohalariga asta-sekinlik bilan dastlab chor Rossiyasi, keyinroq bolsheviklar tuzumining tutumlari ko'p hollarda zo'rlik, aldov bilan joriy etila boshladi. Tabiiyki, bundan islomiy ahkomlar ta'sirida shakllangan va faoliyat ko'rsatib kelgan soliq-bojxona tizimi ham chetda qolmadi. Soliq-bojxona faoliyatidagi bunday o'zgarishlar tufayli sohaga yangi tushunchalar hamda shu tushunchalarni ifodalaydigan terminlar kirib keldi. Shu tariqa hozirgi o'zbek tilida ruscha soliq-bojxona terminlari paydo bo'ldi. Buni O.Ahmedovning "istiqlolgacha bo'lgan davrda o'zbek tili soliq-bojxona terminlarining kalka usulida yasalishi nuqtai nazaridan rus tili "yetakchilik" qilganligi, ...istiqlolgacha bojxona va soliq terminlari nisbatan kamroq qo'llanilganligi, ularning muqobili sifatida rus tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan nalog hamda tamojnya terminlari faol bo'lganligi haqidagi qaydidan anglash mumkin .

Biz sho'rolar davrida chop etilgan gazeta materiallarini, turli lug'atlarni kuzatganimizda, juda ko'plab terminlarning rus tilidan aynan olinganligiga guvoh bo'ldik. Masalan, sof ruscha *взнос* terminini olib ko'raylik. U nafaqat sho'rolar davridagi soliq hujjatlarida, balki soliq-bojxona termini sifatida 1981- yilda chop etilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati"ga ham kiritilgan: *ВЗНОС* [r] Biror jamiyat, tashkilot a'zolari oy sari to'lab turadigan pul, badal. *Аъзолук взносов* . Mazkur soliq-bojxona terminining xalq tilida ommalashganligi to'g'ri, shu tufayli hatto hozirgi vaqtda ham so'zlashuv tilida "badal", "to'lov" ma'nolarini ifodalashda qo'llaniladi. Bizning fikrimizga ko'ra, har qancha o'zbek tiliga singishib ketgan bo'lmasin, asta-sekinlik bilan ushbu terminning o'rnida badal, to'lov terminlarining ishlatilishiga erishishimiz kerak.

Shuningdek, sho'rolar davri soliq-bojxona terminologiyasida eng faol termin nalog bo'lgan. Mazkur termin xalq tilida ham, soha terminologiyasida ham juda keng qo'llanilib kelgan. Termin jonli o'zbek tiliga juda chuqur singib ketganligi sababli o'sha davr mahsuli bo'lgan "O'zbek tilining izohli lug'ati"ga kiritilgan. Jumladan: *НАЛОГ*

Sho'rolar davri soliq-bojxona terminologiyasini O.Ahmedov shunday izohlaydi: "Xalq asosan *подходный* leksemasi bilan partiya uchun yig'iladigan *взнос* so'zini yaxshi bilgan, xolos. Vaholanki, daromad solig'i termini *подходный* налог, badal termini esa *взнос* o'rnida bimalol qo'llanilishi mumkin edi. Ammo "dominantlik"ni o'z qo'liga olgan rus tili mahalliy tillardagi terminologik tizimning shakllanib, taraqqiy etishiga muayyan darajada to'siq bo'lgan. Shu bois yuqorida qayd etilgan terminlarning leksik-semantik xususiyatlari umumtilshunoslik nuqtai

nazaridan birinchi darajali nominativ birliklar sifatida izohlangan edi. Demak, o'zbek tili SB terminologiyasi 130 yillik mustabid tuzum ta'siri ostida shakllanib, qator ruslashgan terminlar o'zbek tili leksik qatlamida paydo bo'ldi. Masalan: *таблица ставок, таблица налоговая норма, налоговая система, принципы налоговой системы, налоговые*.

Bizningcha ham, rus tilining ish yuritishdagi yetakchiligi milliy tillar terminologiyasini rivojlanishiga to'sqinlik qilgan, soha mutaxassisleri, shuningdek, tilshunoslar ham terminologiyani yalpisiga milliylashtirishni umumrespublika miqyosida olib borolmas edilar. O.Ahmedov aytgan ruscha birikma terminlar sohaviy hujjatlarda ishlatilgan. Shuni ham esdan chiqarmaslik kerakki, tilshunoslarimiz filologik lug'atlarda bo'lsa-da, o'zbekcha soliq-bojxona terminlarini qayd etganlar. Ruscha *взнос* so'zini keltirish bilan ma'lum ma'noda tuzum bilan murosa yo'lini tanlaganlar. Jumladan, 1981- yilda Moskvadagi "Rus tili" nashriyotida chop etilgan 2 tomli "O'zbek tilining izohli lug'ati" dan o'zbek tilidagi bir necha soliq-bojxona terminlarining o'rin olishiga erishganlar. Shunday terminlar sifatida izohli lug'atga badal, boj, yig'im, soliq, soliqchi terminlarini kirita bilganlar.

BADAL [a] 1 O'rniga o'rin, bir narsaning evaziga to'lanadigan haq yoki bir narsaning o'rnini bosadigan boshqa narsa; evaz. 2 esk. To'lov, vzos. A'zolik badali. (I tom, 70-bet)

BOJ [a] Chet davlatdan keltirilgan mol uchun olinadigan haq. (I tom, 125-bet)

YIG'IM Biror maqsad uchun xalqdan (xonadon boshiga yoki jon boshiga) olinadigan haq, pul yoki buyum; soliq. (I tom, 350-bet)

SOLIQ 1 Ma'lum tartibda aholidan davlat foydasiga to'planadigan pul, mablag'; nalog. Mahalliy soliq. Daromad solig'i. 2 Biror xarajatni qoplash, yordam ko'rsatish yoki boshqa biror maqsadda o'zaro kelishib ko'pchilikka sochilgan to'lov, yig'im. 3 etn. Oliq-soliqdagi bitimga muvofiq, kuyov tomondan kelin tomonga berilishi lozim bo'lgan pul va narsalar. (II tom, 66-bet)

SOLIQChI Soliq oluvchi, yig'uvchi, to'plovchi. (II tom, 66-bet)

Sho'rolar davri soliq va bojxona ishi hujjatlarida "soliq summasi", "soliq obyekt", "soliq me'yori", "soliq yuki", "soliq va bojxona ma'muriyati", "soliq bazasi", "soliq to'lovchisi", "bojxona boji" kabi terminlarning ruscha shakllariga ishlatilgan.

Ularning o'zbekcha muqobillari "keng omma tomonidan nisbatan kamroq ishlatilganini emas, mutlaqo soliq bilan bog'liq hujjatchilikda qo'llanmaganigi haqida gapirish to'g'ri bo'ladi". Mazkur terminlar faqat mustaqillikdan keyin soha terminologiyasini milliylashtirish maqsadida yaratilgan hisoblanadi.

Ta'kidlash lozimki, tillarning bir-biriga ta'siri doimiy, tabiiy bir jarayon hisoblanadi. O'z navbatida, turkiy tillar ham slavyan tillariga, jumladan, rus tiliga ta'sir ko'rsatgan. Bunday so'z o'zlashtirish jarayonlarini soliq-bojxona terminologiyasida misolida ham kuzatish mumkin. Tadqiqotchilarning fikricha, bojxonachilik Turkistonda juda qadimdan bo'lgan. Shuning uchunmi "qadimgi Turkiston davriga oid turli tillardagi yozma manbalarda "muhr", "ramziy belgi", "nishon" ma'nosidagi qadimgi turkiy tamg'a so'zi uchraydi. Slavyan tillarida, shu jumladan, rus tilida "bojxona" ma'nosida qo'llaniladigan *таможня* termini ham xuddi shu so'z asosida shakllanganligi to'g'risida turli fikrlar bor". Xulosa qilish mumkinki, sho'rolar davrida *таможня* so'zi o'zbek tiliga o'zlashib, o'zbek tili soliq-bojxona terminologiyasida o'rin olgan. Aslida esa bu termin turkiy tamg'a terminining rus tili fonetikasiga moslashtirilgan shaklidir. Demak, ta'sirlashuv jarayonlari ikki tomonlama bo'lgan. Xulosa qilib aytganda, o'zbek tili soliq-bojxona terminlarining shakllanish ildizlari qadimgi turkiy tilga borib yetadi. Ularning salmoqli qismi arab halifaligi davrida islomiy aqidalar asosida o'zgardi, yangilari vujudga keldi. Shu boisdan o'zbek tili soliq-bojxona terminologiyasi tarkibida arabcha terminlar kuzatiladi. O'zbek xalqi qadimdan tojik xalqi bilan yonma-yon yashab kelgani sababli tilimizda fors-tojikcha til unsurlari ham anchagina. Mazkur lug'aviy boylik ichidagi bir qator leksemalar soliq-bojxona tushunchalarining ifodalari sifatida maxsuslashgan ma'noga ega bo'lgan.

O‘z navbatida, umumturkiy yoki sof o‘zbekcha soliq-bojxona terminlari ham son jihatidan ko‘p bo‘lib, ular o‘zbek tilining tarixiy taraqqiyotida mobaynida yashab kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Hamrayev M. O‘zbek tilidan ma‘ruzalar majmuasi. – Toshkent, 2012.
2. Ahmedov O. Ingliz va o‘zbek tillarida soliq-bojxona terminlarining lingvistik tahlili va tarjima muammolari: Filol. fan. d-ri. diss. – Toshkent, 2016.
3. Qodirov J., Gaipnazarov R. O‘zbekiston Respublikasida bojxona ishi tarixi // O‘zbekiston bojxona axborotnomasi, 2019. 1-son.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. II tomli. I tom. – Moskva: Rus tili, 1981.
5. Juvonmardiyev A. XVI – XIX asrlarda Farg‘onada yer-suv masalalariga doir. – Toshkent: Fan, 1965.